

# AHMAD A'ZAM

## ODAMNING OLASI

### *Hikoya*

Lof emas, yalamada Sherqozidek muloyim, undan halimroq kishini topish mushkul. Mana, yoshi qirqdan ham oshibdiki, birov bilan san-manga borganini yoki, aqalli nomiga bo'lsa-da, kimsaga doq urganini hech kim kormagan-eshitmagan. Lekin yallamaning man-man degan boyni yog'oni ham uning qarshisida qol qovushtirib aytadigan gapini orqa-oldiga qarab, oylab gapiradi: Sherqozi "Jonim-jonim"lab har qanday odamning jonini kekirdagidan sug'urib oladi.

Sherqozi bir odamdan, u ham bo'lsa otasidan bir oz cho'chiydi. Lekin hovli-joyi, rozg'ori boshqa, shunday ekan, qarib qolgan boboydan cho'chidi nima, cho'chimadi nima! Uch singlisi, "musofirlikda yurgan" ukasi va onasiga Sherqozi ayabroq gapiradi, ammo ular ham Sherqozidan negadir hayiqishadi. Ayniqsa, xotini Karomatga xudo yurakdan bergan: elkasidan ham kelmaydigan (taqdir ekan-da!), uvoqqina eri oldida qaltirab turadi. Sherqozi jahli chiqqan paytlarda baqirmaydi, sokmaydi, "Xonim!" deb sizlaydi, "Karomatxon!", deydi - uzib oladi. Uning eshikdan: "Karom, choy-poying bormi?" O'zbekning rozg'ori qursin, birin bitirsang, biri tayyor turadi-ya". Deb horg'in kirib kelishiga, oh Karomat joni-jahonini berishga tayyor – Sherqozining erkalatgani shu-da!

Aslida-ku, Sherqozi rozg'ori, xo'jaligidan nolimasa ham bo'ladi – joyida. eshik oldi bir tekis vaish, husayni, keyin yana bir qator qora kishmish, muskat... eng oxiri – ertagi daroyi. Undan song xuddi shunday tartib bilan pomidor, bodring, kartoshka, loviya, bulg'ori qalampir, achchiq jaydari qalampir ekilgan. Uyning orqasida esa beda, makkajoxori, piyoz, ozgina sarimsoqpiyoz, sabzi, yana urug'ini Sherqozi qaydandir topib kelgan "sudanka" degan emish ot. yon tomonda chog'roqqina bog', u erda mevali daraxtning yong'oq bilan shaftolidan boshqa qariyb hammasi bor. Sherqozi bu ikkala daraxtning mevasini yaxshi korsa ham, ozini xushlamaydi: yong'oq ko'p joyini egallaydi, tomorqaning ancha joyiga soya tashlab, boshqa ekinlarni siqib qoyadi, shaftoli esa uch-tort yildan song qarib qoladi. Hovlining chor-atrofi bir tekis boy tortgan mirzateraklar bilan oralgan. Har biridan ikkita bolor chiqadi. Agar qirq somdan (Sherqozi oshiqcha soramaydi – insofi bor) pullasa, ozicha osadigan, osh-non soramaydigan shu teraklarning ozi ikki yarim-uch ming turadi. Bu ham bir davlat-da, pul topish oson emas, lekin yolini bilish kerak.

Sherqozi pulga muhtoj emas. Uch govmish sigiri (bittasi yaqinda tug'ib beradi), ikki zotli buzog'i, bir novvosi bor; buqasi esa boquvda, burniga otkazilgan xalqani silkitib, pishqirib yotibdi. Besh-oltita qoyi dashtda – choqonda. Har yili yo

birontasi yoqoladi, yo harom oladi, biroq Sherqozi qo'li ochiq, bag'ri keng odam – kuyinib otirmaydi, “Sadaqa-da, kelgan baloqazo shunga ursin”, deb qoya qoladi. Negaki, Sherqozi pulning izidan quvgan odam emas, aksincha, pulning ozi uni quvlab yuradi. Tog'ri, Sherqozi tinmaydi, ertayu kech mehnat qiladi, ko'pincha tez-tez mol almashtirib sotadi. Har biridan ikki yuz-uch yuz yonga qoladi, lekin hech kim buni ayb sanamaydi – bozor-da, yo'lini bilagn odamniki halol.

O'tgan yili Sherqozi og'li uxlagandan song xotiniga achchiq choy damlatib, o'zicha xomchot qilib ko'rsa, jamg'armasi bitta engil mashinaga bemalol etib, hatto oshib ham qolibdi. Keyin oylab qarasa, yalamaning eng old odamlarida mashina bor. Sherqozi ulardan hech bir kamchilik joyi yoq. Sherqozi ertasi kuni yaqin-yaqin og'aynilaridan shunchaki nomiga ikki ming qarz ko'tardi; qishloqda har xil odam bor, ozi suvchi, topgani muncha, shuncha pulni qaydan oldi, deb ustingdan yozishdan ham toymaydi bular. U pulni kostyumining astariga tikdi-da, tog'ri markazga – rayijroqom raisining qabuliga jonadi. Gapni qisqa qildi: “Bizni, mana, yaqin on yildan beri yaxshi bilasiz. Paxtani kechalari quloq boshida qolib sug'orish tashabbusiga qo'shilganimiz uchun rahmatnomani o'z qo'lingiz bilan topshirgansiz. Ammo shu patgacha unim kam, bunim kam, deb sizni bezovta qilganim yoq. endi bir iltimos bor. Tog'risini aytganda, siz uchun og'zingizning bir chetidan chiqadigan gap, biz uchun esa... o'zingiz bilasiz”. Rayijrokom raisi: “Nima iltimos ekan? Agar qo'limizdan kelsa, sizdek ilg'or suvchidan yordamimizni ayaymizmi?”, deb qo'ygach, Sherqozi temirni qizig'ida bosdi: londa qilib shu kishi shu lavozimga ko'tarilgandan beri rayon xo'jaligi gurillab rivoj topganini, hali xudo xohlasa, bundan ham zor bo'lajagini, odamlarning farovonchiligi oshib; ko'pchilik mashina olganini va shular qatorida g'arib Sherqozi ham bitta “aravacha” kerakligini (agar iloji topilsa, albatta; yoqsa, nima, mashinasiz odamning kuni otmayaptimi!) bayon etdi; “Kel-e, shu kalbag'alning ham elkasiga bir o'ftob tegsin, deysiz-da endi”, dedi oxrida. Xullas, markazga imi-jimida, hech kimga bildirmay jonagan Sherqozi qaytishda hammaga ko'z-ko'z qilib, govmish sigirining qaymog'idek tovlanib turgan “Jiguli”ni haydab keldi. Qurg'ur, ozi ham kiyikdek bo'lar ekan, sal tizginni boshatsang - uchadi-ya, uchadi! Ayniqsa, Sherqozi bunga qadar kerakli qog'ozlarigacha tog'rilab qo'yib, mashina haydashni ham organib olganini aytmaymizmi!

Yalamaliklar: “Sherqozi hozir besh-olti ming puli bor”, deb gap qilishadi, balki, rostdir. Lekin buning uchun hech kim Sherqozi ayblamaydi: ishlab topadi – haloli bo'lsin! Ha endi, hamma joydagidek, yalamada ham bir-ikki og'ziga kuchi etmagan topiladi. Bulturdan beri maktabda rus tilidan dars berayotgan malla, sepkildor Sarvar (u o'qishdan diplomga qo'shib “Savrasik” degan laqab ham olib qaytgan) Sherqozi “meshchan” debdi. Sherqozi buni eshitib kulib qoya qoldi. Ozi tengi bo'lganda-ku, onasini ko'ziga korsatar edi-ya! Qolidan bir ish kelishi dargumon, chontagida hemiri yoq bu mirquruq yoshlar o'zlari etisholmagan narsa borki, yomonlashadi. Keyin Sherqozi hech ham mechkay emas, ovqatni taniga qarab tanlab eydi. Bu bolalar og'zidan chiqqan gapning ma'nisini bilmaydi-yu, yana birovlarni nah urishiga olasanmi! Avval Sherqozi kabi bo'l, qora mehnatning mazasini tatib ko'r, ha, unda gapirsang yarashadi. Toy-marakangga

boshqosh, quvonchingga sherik, dardingga dardkash bo'lsa, boshingga tashvish tushganda, "Jon aka, yordam bering", deb oldiga yugurib kelsang-u, yana o'zi eb birovni quruq qo'ygandek, tortta g'ildirak olganiga Sherqozi puf sassiqqa chiqsa!

Sherqozi chorpo'yadagi ikki qavat korpachada yonboshlaganicha, qolidagi shingil rayhon bilan elpinib, goh xushnud, goh dilgir kayfiyatda (odam hech narsani oylamasa shunaqa boladi) "Bizni tashlab qayga ketdi ul qaro ko'zim mani", deya ming'irlab xirgoyi qilib yotgan edi, qay gordan olashaqshaq paydo bo'lib, naq tepasida shaqqillab qoldi. Sherqozi cho'chib tushdi, qolidagi rayhonni dasturxonga tashlab yubordi.

- Kisht-e, nafasing ochsin! Hoy Karomat, hayda buni, hozir chakki xaltangni teshib ketadi.

Kechki ovqat tashvishida g'imirsib yurgan Karomat oshxonadan chiqquncha olashaqshaq bir narsani uqtirmoqchi bo'lgandek avvalgidan qattiqroq, jon-jahdi bilan shaqilladi-da, uchib ketdi, qoshnining tepa shoxi qorib qolgan tolga qondi.

Oh-o, - dedi Sherqozi xavotirga tushib. – yana achchiq ham qiladilar! Senga chakki xaltani qoshqo'llab tutqazish kerak ekan-da?

"Shu qushning moyakni og'zidan tug'ishi rosmikan?- deb oyladi u, xayoliga kelgan noxush gaplarni quvishga urinib. – Tavba, hamma parranda tuxumni bir tomoni bilan tug'sa, bu tentak teskarisini qiladi-ya! Sabil juda bexosiyat qush-da, aytgani doim tog'ri keladi".

Karomat uydan yana ikkita yostiq kotarib chiqdi.

- Mana, bor-ku? – dedi Sherqozi ajablanib. – yo o'zing ham yonboshlamoqchimisan?

Karomat hu osha kelinchaklik paytlaridagidek ichki bir hayajon bilan, yuzlari yorishib tabassum qildi:

- Sizning soyangizda yonboshlasam arzimabdimi?

Sherqozining hayrati oshdi: "Bugun juda nozu firoqlar o'zgacha – biron gapi bor-ov. Bekorga ishva qilmaydi bu".

- Hm... yonboshla, - dedi u boshqa gap topolmay.

Karomat yostiqlarni erining yonboshiga qo'yib, choynakka qol cho'zdi:

- Choyingiz sovib qolibdi, yangilab kelaymi?

- Keragi yo'q.

Karomat erining yoniga chiqdi, indamay uning oyoqlariga suyanib otirdi. Sherqozining kongli g'alati bolib ketdi.

- E-e, suykalmay otir. Charchab kelganman.

Karomat erining sovib qolgan choyini ichdi-da:

- Bugun o'xshatib quyruq yog'iga palov qilib beraman, - dedi, keyin erining kiyimlariga qarab, qoshib qoydi: - Almashtirib olmaysizmi, ustingizdagini yuvib berardim.

Sherqozi tomoq qirdi-da, chordana qurib otirdi.

- Menga qara, biron bundayroq kiyimlik-piyimlik oldingmi? Olgan bolsang, ko'p aylanib-orgilavermay ayt-da qoy!

Karomat ma'sum iljaydi-yu, indamadi, dasturxonga tikilib otiraverdi. Sherqozining sabri chidamadi:

- Gapirsang-chi!

Karomat yana indamadi.

Sherqozi qarasa, xotini hali-veri og'iz ochmoqchi emas, shuning uchun jorttaga esnab, yolg'onladi:

- Aytganday, Hakim bechora: "Xotinini kasalxonaga olib borib tashlasangiz", degan edi-ya. Sal bo'lmasa, esimdan chiqay debdi. Tur, boshqa ko'ylak olib chiq, buningning yoqasi to'zib ketibdi.

Karomat unga tashvish bilan qarab qoydi-yu, lekin hadeganda qozg'alavermadi. Sherqozi battar qistovga oldi:

- Tur, muncha inmillaysan?

Karomat boshini ko'tardi, xotin bo'lib eriga birinchi marta tik boqib gapirdi:

- Sultoningiz, uylanaman, deyapti!

Sherqozi durust anglamadi:

- Nima?

- Xotin olib berasiz, deyapti.

Sherqozining ko'zlari chaqchayib ketdi:

- Qanaqa xotin?!

Karomatning boyagi tabassumlari, bu gapni aytishdan oldin oylab qoygan rejalari hammasi bir zumda uchdi-ketdi. erining konglidagi gaplar hoshiyasiga maydalab yozib qoyilgandek dasturxonga termilib qorqa-pisa ming'irladi:

- Bir-biriga kongil bergan ekan.

- Kimga? Anavi Karim chakkining jinqarchansigami?

- Yoq, boshqa Ashirqul akaning qizi.

Sherqozi tutoqdi:

- Ey, menga qara, esing joyidami ozi? Og'zingdan chiqqan gapni bilib gapiryapsanmi?

Karomat eriga alamli qaradi:

- Bilganim uchun gapirayapman. Hali juda ahmoq bolib qolganim yoq... Cholga ketaman deyapti...

Sherqozining bir qoshi kotarildi: “eh-e, gap jiddiyga oxshaydi. Bu kasofat olashaqshaq bekorga shaqqillamagan”.

- Ey, menga qara, galdirama. Dam xotin olmoqchi, dam cholga ketmoqchi deysan. Nima, uylanib, cholga xotini bilan ketmoqchimi?

- Sizga bir gapni uqtirguncha olib boladi odam.

“Agar Manzurani olib bermasanglar, boshimni olib cholga ketaman”, deyapti. – Karomatning ko'zlariga jiq-jiq yosh to'ldi. Sherqozi esa negadir oz-ozidan bir oz engil tortdi: “Ketib bopti! Ketsa ham ikki kunda mulla bolib qaytadi. Lekin manavit aqli kaltani qanday qilib tinchitish kerak?”

- Hm, boshini olib ketadi, de. Bu erda ishlamagan bosh uyoqda ish berar ekan-da, a? Senga tashlab ketsa bolmasmikan – aqlingga aql qoshilarmidi! Ikkita bosh bilan tuzukroq oylarmiding...

Karomatning kipriklari pir-pir uchdi:

- Sizga shunaqa mayna qilish bolsa! Televizordagi ergashdan kamingiz yoq.

Sherqozining qoshi joyiga tushdi, biroq shu on yana qayta, bu gal atay kotarildi.

- Tinchgina otirgan edim-a! Qay gordan shu gapni topding?

Og'lingda kalla bolmasa senda bordir? Sen esingni eb qoymagandirsan?- Sherqozi qollari titrab choy quydi, bir kotarishda ichib yubordi. – e, tavba! Oqishdan-ku birinchi imtihondayoq oyog'i osmondan bolib qaytdi. endi bu nag'mani oylab topdimi? Noyabrda lip etib armiyaga olib ketsa... e, hali xotinning ma'nisini qaydan biladi bu!

- Bittayu bitta og'lingiz... - dedi Karomat iyagini tizzasiga qadagancha.

Sherqozi bog'ildi:

- Yoq, u mening og'lim emas, moltonining torvasidan tushib qolgan, begona! Bu mol-davlatni narigi dunyoga orqalab ketaman, deb ozim uchun topladimmi! Opkam og'zimga tiqilib ertadan qora kechgacha kim uchun chopaman? Bittayu-bitta farzandim, shuni odam soniga qoshay, deb yuribman-ku, axir!

- Shunday-ku-ya – dedi Karomat ko'zlarini engi bilan artib.

Sherqozi birdan hovuridan tushdi:

- Karom, menga qara, esingni yig'. Munda-ay tanagga oylab kor. Hali murti chiqmagan bolaga xotin olib berib, malomatga qolmaylik. Oyoq tirab turib olsa, nasihat qil, avra. Bugun kongil qoysa, ertaga esidan chiqadi. Juda kokragini zaxga berib yotib qolmas. Otam xotinni qoynimga solib qoysa, har kuni bittadan muchchi olardim, degan kaltaoy bola-da. yo biron shumlik qilib qoinganmi og'ling?

Karomat qorqib ketdi:

- Yogʻ-e, xudo saqlasin! Faqat xat olib, xat berisharmish.

- Unda, hovliqma. Bolangning sal suyagi qotsin, biron ishning boshini tutsin, keyin bir gap bolar.

- “Otanga ayting”, deb hol-jonimga qoymayapti-da, nima qilay?

Sherqozi bir zum oylanib turdi-da, dedi:

Ha, garang qilaversa, “Otang roziga oxshaydi”, deb qoyaver.

Karomatning yuzi yorishdi:

- Rostdanmi?

Sherqozining endi jahli chiqdi:

- E-ha, gap bu yoqda ekan-ku Ogʻildan oldin oʻzlari chopavul chopgan koʻrinadilar? Farosat ulashganda qayoqda edilar? Qaynona boʻlgilari kelib qoldimi? A, bu Ashirqulning xotini buzuq, erkaklarni yoʻldan uradigan edi-ku? Uni korarga qoʻzlari yoʻq edi. endi u bilan quda-anda boʻlmoqchimilar?

Bu gap Karomatga yomon botdi.

- Musallamni yomon koʻrsam... - deya tutilib qoldi u. – Unga ham oʻzingiz aybdorsiz. Bechorani oʻzingiz... yoʻldan oxdirgansiz. Shuni olaman, deb...

- Ha-a, ana shunaqa boladi, - deb Sherqozi xotining gapini shartta kesdi. – Bir vaqtlar puf sassiq edik, kaltabaqay, yana nima balolar edik. Biz bilan rosa bir yil yurib, tegishga kelganda, “Boyi bir qarich boʻlmay oʻlsin, shu chittakka tegamanmi! Tagiga tortta gʻisht qoʻysa ham menga etmaydi”, deb burunlarini jiyirgan edilar, - Sherqozi qoʻllarini beliga qoʻyib, ovozini chiyillatib, boshini sarak-sarak qilgan xotini ijikladi. – Aytavermaymi? Musallam menga bitay deganda, har kuni yoʻlimni poylab, buning ham iloji boʻlmagach, “Agar meni tashlab, musallamni olsa, ustimga kerosin sepib ot qoʻyaman”, deb opasini yugurtirgan ham oʻzlari. Shundaymi? yana aytaymi? “Kuyovimga koʻz qisding”, deb shorlik beva Sharofatni yulganingizni ha gapiraymi? “Musallamni issiq-sovuq qilib bering”, deb chizmakash oyimga yalinganingizdan ham mandat beraymi? Yoʻq, deng! Ha, nega indamaydilar?

Karomat boshlagan gapining oʻz zarariga bunday chappa aylanib ketishini kutmagan edi, shoshib qoldi, chor-nochor iljaygan xotini, qizarib-boʻzarib yon berdi:

- Oling, siz oshanda ham kichkinagina bolib, bir yoʻla besh-oltitamiz bilan yurar edingiz. Bilmasmidim, hali ham men...

Bu gap Sherqoziga ancha yoqib tushdi, shunday boʻlsada, oʻdagʻ aylab qoydi:

- Kim kichkina? – Keyin rostdan ham xudo oʻzini boydan jinday qisgani esiga tushib, xotini gap bilan sekingina chimdib oldi: - Shuncha gapdan keyin kichkina ham qiladilar!

Karomat shorlik qora bulutlar yogʻmay, boshidan shuv oʻtib ketganiga ishonch hosil qilib engil tin oldi, oʻzini uyalganga solib eriga er ostidan suzilib

boqdi. Sherqozi ham labini yig'ishtiro olmay kulib yubormaslik uchun choydan ho'pladi. "He, noz qilmay ol-e", deb ichida xotinini sokdi.

- Ha endi, xudo birovni uzun, birovni qisqa, birovni katta, birovni kichik qilib yaratadi-da. Anavi teraklarni qara, ekkanimda hammasi birday edi. Suvi bir xil, eri bir xil, lekin ikkita baravarini topib ber, qani? Hamma bir tekis bo'lsa, dunyoning qizig'i qolmaydi. Mana, sening boying ketgan... Bizniki shu, sal... Lekin olmaga etmasak ham, shaftolini uzamiz, ha! yaratganning qudratini qara – ikkovimizni qo'shib qo'yibdi. yo norozimisani? Norozi bo'lsang, ayt. Mana, Sunnat salangni qara – boyi tom baravar. Aqli-chi? ellikka kirdi, hali ham valasapid minadi. e-e, kampir, dunyoning ishlari shunaqa...

Sherqozi shu tariqa bir muddat va'z o'qidi, butunlay tor-mor bo'lgan "kampiri" ham ora-sira hangomaga moy quyib, erining oyoqlarini uqalab otirdi.

Er-xotin oralaridan hech gap o'tmagandek, yana apoq-chapoq bo'lib ketishdi-yu, biroq Sherqozining halovati yo'qoldi. Qolaversa, xotinining gap ma'qullab, oyoqlarini uqalab otirishida ham ma'ni ko'p. Mushtipar ayolda, ham erning, ham farzandning kunglini olmoqchi. Bu savdoning orta bir yo'lini topish kerak – six ham kuymasin, kabob ham. Lekin erkato'y o'g'ilni ahdidan qaytarib bo'larmikan?

Kechqurun ukasi galstuklarini yaraqlatib, osmondan tushdimi, erdan chiqdimi, bir-bir bosib eshikdan kirib kelganda Sherqozi bir ko'za tilla topgandek suyunib ketdi: Sulton hech kimning gapini olmasa ham, amakisinikini oladi.

- Kel-e! Qaylarda yuribsan? Odamni sog'intirib yubording-ku! Uka degan ham shunday bo'ladimi? Uch oydan beri na xat, na xabar! Mundoq akam bor edi ham demaysan. Ishlaring qalay? Ranging olinib qolibdi. Charchadingmi? Imtihonlarinigdan qutuldingmi? Qachon bitirasan bu ishingni? Hech yoqlay deyapsanmi? yoqla-e tezroq. Bizning ko'krakka ham shamol tegsin! Ukamiz olim bo'ldi, deb karillab yuraylik. endi uylansang ham erta emas, Musaqulboy. Turg'un sen bilan o'qiganmidi? yaqinda yana o'g'illi bo'ldi. O'zi magazinchi, tort o'g'ilning otasi, burniga xoda etmaydi. Bu yoqda, mana, Sulton akang ham uylanaman, akam yo'limni ochsin, deb turibdi. Kelin ham tayyor emish, ha. Toza oshiq-ma'shuq. Qoy-e shu ishingni, qiynalib ketding. yo domlangning qiz-piziga ko'z tikib yuribsanmi? Mayli seniki tog'ri. Katta odamlar bilan qarindosh bo'lgan yaxshi. Mana, biz o'qimadik. Lekin yangang bilan qozon-tovoq, uy-ro'zg'on institutini gullatib yotibmiz. endi qaynotaqaynanalikni imtihon topshirarkanmiz...

"Maskovdagi besh yilligidan ham katta o'qishda domullolikka o'qiyotgan Musoqolboy" akasining pishib otib ketgan shaftolidek tap-tup tokilayotgan savollariga sipolik bilan xushlamaygina ha-hu deb otirdi. "Mashqi past – pul sorab kelgan-ov", deb qoydi ozicha Sherqozi.

Aka-uka quyruq yog'iga qilingan xushxor palovni tushirib, songra xojabilmas qonuvnni huzur qilib eyishdi, ustidan achchiq ko'k choyni bosib-bosib ichishdi. Sherqozi "Ha, korsatgan kuningga, etkazgan martabangga shukur!" deb yonboshladi, nos otdi. Muso ham chontagidan tilla qog'ozli qutichani chiqarib, sigatera tutatdi.

- Musoqulboy, boshga bir tashvish tushib turibdi, uka, - deb gap boshladi Sherqozi nosini tupirib, og'zini choy bilan chayib olgach – shu ukang, jiyan bolsa ham ukang-da endi... Kampir, og'ling qayoqqa daf bo'ldi?

- Mansur jorasining tug'ilgan kuni ekan. Ozingizdan sorab ketdi-ku, - dedi Karomat.

- Xah, tirmizaklar-ey! Tug'ilib nima karomat korsatibdilarki, uni nishonlasa! – dedi Sherqozi. – Mayli, borib kelaqolsin. Ishqilib ichkilikka organib ketmasa bo'ldi... Musoqulboy, shu ukang egan-ichganimni burnimdan buloq qilib oqizmoqchiga oxshaydi-da.

Musaqul akasiga hayron qarab qo'ydi.

- Kampir, bor, sen u-bu ishlaringa qara qozon-tovog'ingni yuvasanmi yo hamsoyalarnikiga otib gap sotasanim, ishqilib bizni xoli qo'y, gapimiz bor, - dedi Sherqozi.

Aftidan Karomat ularni hech xoli qoldirgisi yo'q edi, shekilli, sinini buzmay:

- O'tiribman-da, - dedi.

Sherqozi shu paytgacha gapini ikki qilmagan xotiniga o'qrayib qaradi, ammo hech narsa demay ukasiga o'girildi:

- Toza charchadim, uka. Bir o'zim bo'lsam, hali u deb yugur, hali bu deb. Bir yoqda kolxozning ishi, bir yoqda ro'zg'or tashvishi. Ahvolimni ko'rib turibsan – bitta xotinga gapim o'tmaydi. Ali desang, bali deb turadi. Ona-bola toza boshimga chiqib oldi. Mana, bir oyki, har kuni g'alva: Sul-tonboyga xotin olib berish kerak emish! Oqshomlari uxlamay, ko'kragini zaxga berib yotadi. Bir-birlariga kongil qo'yibdilar! Shu Ashirqulda bir qiz bor – xudoning balosi. Agar shuni olib bermasam, ona-bola meni tashlab, cho'lga qochib ketar emish, cho'lga!

Karomat angrayib qoldi. “yolg'on gapirguncha yorilib o'lsangiz yaxshi-e”, degandek yoqasini ushladi. Muso akasining gaplariga chippa-chin ishonib, yangasiga qaradi: “Shunaqami?” Karomat nimadir demoqchi edi, Sherqozi imkon bermadi:

- O'tir-e! Men gapiryapman. ermanmi senga! Ana shunaqa, uka, bir og'iz gapirish uchun bulardan ruxsat sorash kerak. Ayt, desa – aytaman, yo'qsa, tilimni tishlab otiraveraman.

Muso juda tashvishlandi:

- Masala shu qadar jiddiymi?

- Nima, qulog'ingga tanbur chertayapmanmi? Jiddiy bo'lmasa, shuncha kuyib-pishamanmi?

Muso galstugini boshatdi, yana bitta sigareta tutatdi, rostdan ham akasining boshiga juda katta falokat tushganu, bunda faqat o'zi xalaskor bo'lishi mumkindek, o'ychan qiyofada so'z boshladi:



- Unda masalaga bunaqa tarzda bir yoqlama yondashib bo'lmaydi. Tog'ri, Sulton sal yoshroq albatta. Lekin kechalari uxlamay... Umuman, bu qadar qattiq sevib qolgan bo'lsa, konglini sindirmaslik kerak. Keyin uning shakllanishiga yomon ta'sir etishi mumkin. Masala juda jiddiy. Chuqurroq oylash kerak.

Sherqozining ensasi qotdi.

- Masala-pasalangni qoyib tur, uka. Undan kora Sultonga ozing ikki og'iz nasihat qilsang-chi. Seni "akam-akam"lab, soyangga sakkiz qavat ko'rpacha toshab yuradi – gapingni ikki qilmas.

Muso "jiddiy masala"ni hal etishning bunaqa oson yoli borligiga hayron bo'ldi:

- Men-ku nasihat qilarkan, biroq u...Sevgi degan narsa...

- Xosh? – dedi Sherqozi ukasining chaynalishiga g'ashi kelib.

- Bolaga javr bo'ladimi, deyman...

- Men ham shuni aytaman-da, - dedi Karomat qaynisining daldasidan umidi uchqunlab.

- Unda nima qil deysan? – dedi Sherqozi.

Muso yana dudmal gapirdi:

- Har holda kongil masalasi...

- Uylantirib qoyaymi? – dedi Sherqozi qizishib. – Nonni nanna deb yurgan bolani-ya?

Muso kiftini uchirdi:

- Bilmasam.

Sherqozi davom etdi:

- Uylantirib qoysam-da, hafta otmay: "Ota, bunisi yoqmadi, oyog'i ingichka ekan, boshqasini olib berasiz", desa, yo: "Kulishi bizga tog'ri kelmadi, yaxshi kuladiganini topdim", deb qolsa, unda nima qilaman? Mening qiz fabrikam yoqki, bu ona-bolaning kongliga tog'ri keladigan, andazasiga tushadiganidan chiqarib beraversam!

Musoning birdan ojarligi tutdi:

- Demaydi! Men kafilman – demaydi. Muhabbat – sizga oyinchoq emas. Bu... Ozingizning og'lingiz bo'lsa ham, tuyg'ularini oyoqosti qilishga haqqingiz yoq!

"Ie, bu balo qaydan chiqdi?", deb qoydi Sherqozi konglida.

- Ey, menga qara, kallang joyidami ozi? – dedi u ich-ichidan xuruj qilib kelayotgan jahlini bosishga tirishib.

Bu gap Musoga achchiq qamchi bo'lib tegdi va u shu paytgacha qamchi ko'rmagan asov arg'umoqdek kotarilib ketdi:

- Kallam joyida, juda joyida! Qani...

- Kallangiz joyida bo'lsa, o'zingiz uylantirib qo'ya qoling! – deb Sherqozi birdan sizlashga otdi.

Musoga akasining kinoyasi juda og'ir botdi, shuncha vaqt uning gaplaridan rangi chiqmay yurgan odam, birdan isyon qildi:

- Bopti! O'zim uylantirib qoyaman! Nima, qolidan kelmaydi, deb o'ylayapsizmi? Keladi! Toy-poy deb otirmay ikkalasini ham Moskvaga olib ketaman, o'qitaman. Stendiyamni shularga berib, o'zim vokzalda yuk tushirsam ham, kunimni koraman.

Sherqozining zahrasi uchdi: “e, bu qipqizil tentak ekan-ku!”. Lekin, bari-bir tilining qichig'ini bosolmadi:

- Hm... mayli uylantirig. Sizga ham farz – ukangiz. Men olib, netib qolsam, albatta uning boshini silashingizga tog'ri keladi. Lekin hozir qaysi pulchalariga uylantiradilar? Mullajiringni qaydan topadilar, mullajiringni?

- Topaman! – deb tursaydi Muso.

- Oldin ozlariga xotin topsinlar! Olti yildan beriki,

Odamlarning ichidagi gaplarni topish tog'risida kitob – dasturilamal yozyaptilar... (Dissertasiyasining muvzuini Muso har kelganida akasiga dehqoncha qilib qaytaqayta tushuntirib qo'yan edi.) Biron bir qizning ham konglini tekshirsalar bo'larmidi, zora, ozlariga mayl bildirgan chiqar...

Muso qanday guvlab kotarilgan bo'lsa, shunday shuvillab tushdi:

- Mening uylanishim bilan ishingiz bo'lmasin! Uylanarman ham. Og'irligi sizga tushmaydi. – U lablari titrab, akasiga yovqarash qildi. Sherqozi haddidan oshganini sezdi, bundan o'zi ezildi. – Aka bo'laturub sizdan shu gap chiqdimi... bopti! Bopladingiz! endi og'il uylantirasizmi yo o'zingizga yana bitta chori olasizmi, aralashmayman. Bundan keyin... - Muso gapini oxirigacha aytmay qol siltadi-da, sapchib joyidan turdi.

- Iloyo, og'il tug'may men o'lay! – deya Karomat hongillagancha yig'lab yubordi.

Sherqozi indamay erga qarab qoldi; ukasi eshikni qars urib chiqib ketgach esa, juda-juda xorligi keldi: shu kitobxor, savdoyi ukam ham odam bo'lsin, peshonasiga oftob tegsin, deb topgan-tutganini ayamaydi; jonaganida doim mashinasiga otqazib, shahardagi vokzalgacha chiqarib qoyadi; shu yil koklamda kiyimlarining unniqib qolganini korib, begona yurtda – dostu dushmanning ichida kongli chokmasin, deb, jigari-da, yuz ellik somga (shuncha pulni qaysi mard eb ketarga beradi!) ustidagi kostyumni olib berdi; mana oqibati – itday qilib ketdi! Xotinini choriga teng qildi. Bir og'iz gapiga!

- Ochir uningni! – deb oshqirdi u hamon oksib-oksib yig'layotgan xotiniga. Ochir, deya!

Karomat unini o'chirib, piqillashga o'tdi. Sherqozi ukasining hamon o'chmay, likopchada tutab yotgan sigaretasiga termulib, o'zini bu olamdagi eng baxtiqaro odamdek his etdi, chuqur xursindi:

- Sorovdingmi, bu bodi necha kunga kelgan ekan?

Karomat elkasini qisdi.

- Qanaqa merov xotinsan? Sorab olmaysanmi, axir? – deya Sherqozi do'ppisini qiyshaytirib, gardanini qashladi. – Bugun buqaga em berdinglarmi?

Karomat bosh irg'ab, "Hi-iy" degan tovush chiqardi, bu "Ha", degani edi.

Shu tunni Sherqozi qush uyqusida otkazdi. Og'lining yarim kechasi gandraklab kelganini, yotgandan song ham kongli aynib, uch marta tashqariga otilib chiqqanini korsa ham, indamadi. Oylagan oylarining tog'riligiga ishonch hosil qilib, ertalab dili ravshan tortib turdi. Ikki chaqirimcha naridagi uchastkadan xabar oldi. Kecha taralgan suv hali etakka etmabdi. Tekis er-da, suv yurishi qiyin, lekin g'ozalar qonib ichadi. Sherqozi u er-bu erdagi yuvilayozgan quloqlarga chim bosib tog'riladi-da, uyga qaytdi. Kelsa, ko'zlari qizarib, rangi olinib qolgan Sulton qatqni qoshiq bilan kavlab otirgan ekan, otasini korib boshini ham qildi; kecha ichgani uchun undan achchiq-tiziq dashnom kutdi. Ammo Sherqozi buni og'lining yuziga solmadi – u boshqa fikrlar bilan band edi.

- Boldingmi? – dedi u. - Qani, boltani ol.

Ota-bola hovliga chiqishdi. Sherqozi qaysi teraklarni yiqitish kerakligini bir boshdan korsatib turdi. Sulton esa bolta bilan kaftdek postlog'ini uchirib belgi qilib boraverdi.

- Yigirmata, - dedi Sherqozi. – Etadi. Yiqitib, butaysan-da, postlog'ini shilasan. Ko'zingga qara, elektr simiga yonboshlatib qoyma tag'in. Daraxt bolta urgan tarafga qulaydi, esingdan chiqmasin. Aylantirib g'ajib tashlama, bir tomonidan chop. Bunga ikki kun ketadi. Keyin mana bu eski og'ilni buzib, ornini tekislaysan. Biron ta shopir bilan tog'dan besh-olti moshin tosh tashiysan. Biron tonna semon, uch mingta g'isht quyasan. Og'ilning orniga, keyin tashib qiynalmaysan-da. Terishiga, mayli, o'zim qarashaman, ammo boshqa hamma ishni o'zing qilaman, orgataman. Uch uy, bittasi mana bunaqasiga tushadi. Bu yog'i ayvon. Imoratni quling orgilsin qilib bitirasan, ana undan keyin – toy. Kelinni yangi uyga tushirmasak uyat boladi, hamma shunday qilyapti. Sening boshqalardan kam joying yo'q. O'zing qara, shu choldevorga kelin obkelib boladimi? – U poydevori erdan bir quloch kotarilgan, derazalari uch tavaqali, tomi shifer bilan qoplangan, oqlangan besh xonali imoratga ishora qildi. – Senga yangi uy kerak. Bir cholu kampirga shu choldevor ham bolaveradi. Sog'in... pul topishning ham yo'lini oyla. Tokaygacha seni boqaman? endi bizni boqadigan vaqting ham keldi... Mayli, seni kochaga tashlab qoymayman – ming som beraman. Imorat uchun. Ana, bor-e, novvosni ham toyingga atadim. Bozordan biron ta mol olib beraman. Boqib semirtirsang – foydasi seniki, zarar qilsang – tolaysan. Lekin qolganini o'zing topasan. Toyga ham besh-olti ming kerak. Nima

qilasan? Ishlaysan-da. Brigadirdan sorab koray-chi, aravani berarmikan. Keyin, paxta tugagach, Pirinning qavatiga kirib traktorchilikni ham organsang... Hozir traktorchilari ham oyda ikki yuzdan oshirib tushiradi. Ola xurjunni elkalash oson emas. Jamiyki narsa pulga bog'liq bo'lib qoldi. Hozir qizlar to to'ygacha, to ship etib oyoqqo'lingni bog'laguncha iljayib: "Sulton akajon, sizsiz menga dunyo qorong'u", deb yuradi, keyin xat olib, xat berishlar qayoqda? Pul olib, pul berishadi.

Sultonning qo'lidan bolta tushib ketay derdi.

- Bunaqada... uch yilda ham... - deya oldi u.

- Ha? Uylanish – olma pish, og'zimga tush emas. Agar bu ishlarni ertaroq bitiraman, pulni bir oyda topaman, desang ham – ixtiyoring. Men cho'zib otirmayman. yoki, shuncha vaqt meni kutib otirmaydi, deb qorqayapsanmi? Kutadi, yaxshi korsa – kutadi. Sen yangi uyga tushirib olaman desang, obro'yi-da, qaytanga boshi osmonga etadi. yo yaxshi kormaydimi?

Sulton erga qaragancha qizarinib g'uldiradi:

- M-m, nega endi...

- Bopti-da, - dedi Sherqo'zi.

Biroq Sultonning savoli bor edi:

- A, kelasi yil o'qishga borasan, degan edingiz-ku?

Sherqo'zi bunaqa anqov bolani endi korayotgandek, juda "hayratlanganini" bildirib:

- Ana xolos! – dedi. - Qanaqa o'qish? esingni eb qo'yingmi, og'lim? Boyningga ola xurjun tushayapti-yu, sen o'qish deysan. Xotiningni kim boqadi? Senga kim har oyda etmish-sakson som jonatib turadi? Bularni oylaysanmi?

Sulton bozarib ketdi.

- He, sodda bolam! Xotin deb o'lib-tirilib pul yig'asan, tushurib ham olasan. Toydan keyin uch-tort hafta chillang chiqquncha yashinmachoq oynab, quvlab ham yurasan. Keyin... boshlanadi – rozg'orning unisi kam, bunisi kam. Bir vaqt qarabsanki, sevgi degani donga qongan chumchuqdek pir-r etib uchib ketdi, uning orniga esa xotining tort-beshta churvaqani qatorlashtirib tug'ib tashlabdi. Shundan keyin dod sol, baqir, qayda – yoshlik qaytmaydi, yashinmachoq ham yoq. Bolalaring katta bo'ladi, qo'lini halollash kerak, uylantirish kerak. Ular-ku hech narsaning tashvishini tortmay unib-osaveradi, ammo sening boyningda – bir umrlik boyinturuq!

Sherqo'zi og'liga zimdan razm soldi: Sultonning rangi ochib, shalvirab qolgan edi.

- Qanaqa qilib o'qiysan? Ularni qishloqda qoldirib, ozim ketaman desang, bolalaring: "Otajon, bizni tashlab qayga borasiz", deb big'illab etagingga tarmashadi, xotin yoqangdan ushlaydi, sen qayda bo'lsang men ham osha erda,

sensin bir kun kam yashamayman, deydi. yaxshi ko'rgandan keyin shunaqa-da. Seni eru ko'kka ishonmaydi. Shahardan birortasini topib oladi, deb qorqadi. Joralaring o'qiydi, bitirib kelib yog'liq-yog'liq joylarni egallaydi. yana o'qiyman degani Muso amakingga oxshab Maskov, Leningrad, Kiev degan yurtlarga boradi, dunyo kezadi. Sen esa birimni ikki qilay, chirqillab yotgan bolalarimning og'ziga biron egulik tiqay, deb, xotinning etagidan chiqolmay, shahar nima, sayohat nima, tomosha nima – bilmay o'yin-kulgidan, dunyoning gashtidan bebahra o'tib ketasan. Doim shu qishlog'ing, vag'-vug' yig'layotgan bolalaring, shu qora ketmon... Mayli, nima qilasan endi, uylanaman, deb soz berib qo'ygansan, ustidan chiq. Chidaysan-da endi, - deya Sherqozi, goyo og'li allaqachon uylanganu hozir otasiga kun kechirishning og'irligidan zorlanayotgandek tasalli berardi.

Sherqozi uylanishning "qora" manzarasini og'liga aniq-ravshan chiqib berdi, misollar bilan tushuntirdi, kuyinib uqtirdi, unga juda achindi, bunday mushkul ahvoliga o'zi madad bo'lolmasligi uchun taassuf bildirdi: uylangandan song har kim ham, agar u erkak bo'lsa o'z aravasini o'zi tortishi kerak. O'zi esa boshqa narsalarni oyladi: og'ilni yiqitib, o'rnini tekislashga vaqtii yoq edi – ayni muddao; lekin teraklarga jabr bo'ladigan bo'ldi-da. Hay mayli, yiqitib, archib, yaxshilab tahlab qoyilsa, birontasi sorab qolar. Ana Sohibnazar aka bu yil imoratini boshlamoqchi, bolor izlab yuradimi, keladi-da. Bo'lmasa, ustiga qora qog'oz yopsa, nam o'tmaydi, qurib yotadi. O'zi ham vaqti keldi – yana bir yil qirqilmasa, o'zagi chirib qoladi.

- Ha, peshanangdagini korasan-da, og'lim. Qolga tuflab olib, bismillo, de, ishni boshla. Boltani terakning tubidan ur, tunkasi er barovar qolsin. Men onang bilan maslahat qilay-chi, keliniga kiyim-kechak tog'rilaganmikin. Bu ham katta g'alva - qirqta ko'ylak qo'yish kerak. Har biri yuz somdan kam emas. Tavba, yaxshi ko'rganingdan keyin janda-junda ham bo'lavermaydimi? Yoq, bu zamonning qizlariga kamida poshshoning malikasi kiyadiganidan topish kerak. Ilgari odamlar bir qop juxori, uch gaz chitmi, bozmi, shu bilan xotin tushirib olgan. e-e...

Sulton har biri quchoqni to'ldiradigan teraklarning avval tubiga, songra uchiga mung'ayib qaradi, nazarida, ular bulutlarga tutashib ketgandek edi. Sherqozi esa og'lining uylanishiga ruxsat berib, otalik burchini otagan, ammo uning boshiga tushgan fojidan gangib qolgan odamdek elkasidan bosib turgan yukni bazor kotarib, og'ir-og'ir qadam tashlagancha jonadi, yo'l-yolakay kaftini toldirib nos otdi.

- Sorab keldim, - dedi Karomat erini ko'rgan zahoti. – Bugun kechqurun ketar ekan.

- Xafami?

- Ha, xiylagina, - deya Karomat erining og'ziga termildi.

- Puldan onta on somlmk olib chiq. yap-yangi, shaldirab turganidan! – deb buyurdi Sherqozi.

Muso akasini ko'rib qovog'ini uyub oldi, ko'rishmadi ham. Sherqozi esa o'zini juda g'arib tutdi, ukasi salomlashmasligini bilsa ham qo'lini chozdi.

- Otam qani? – deb soradi.
- Xatmga ketdi, - deb tong'illadi Muso.
- Biyim-chi?

Muso teskari ogirilib oldi:

- Bilmayman!
- Qayoqqa ketdi ekan, a? – dedi Sherqozi kampir onasida juda zarur ishi bordek.

- Kelin axtarib ketgan. Menga! – dedi Muso.

Sherqozi yotalib qoydi, tomoq qirdi, “eh-e, kecha toza tegib ketgan korinadi. Pulingiz kerak emas, deb boyvachchalik ham qilsa kerak”, deb oyladi.

- Ha, uka, mening ham kunim bitganga oxshaydi, - dedi Sherqozi dabdurustdan yig'lamsirab. Atay burnini ham tortib qoydi. – Mazam yoq, uka, mazam yoq. Shu yil qishda opkani oldirib qoyganga oxshayman.

Muso akasiga ishonqiramay qaradi, indamadi.

- Koklamda, rengin keluvdi... - Sherqozi gapining davomini aytmay, xuddi hozir, ayni damda bu dunyo bilan xayrlashayotgan odamdek “olis-olislar”ga – shiftning burchagidagi orgimchak uyasiga cheksiz qayg'u bilan termildi: “Tavba, ming xil jonzot bor-a, shu ham kun korsa kerak-da endi”.

Muso laqqa tushdi.

- Xosh-xosh?

- Otamga aytolmay yuribman. Dog'imni kotara olmaydi, deb qorqaman. Ilinib turgan boboy narsa, yiqitib qoyamanmi, deyman-da. Mendan oldin qayga borasan, sendan oldin men ketishim kerak, deb... ey xudo, senga nima yozig'im bor ediki, otamdan ilgari meni olsang! Sen Maskovda, mushtipar singillarim oz rozg'ori bilan... Men bunaqa qiya bolib ketsam, boboyning og'ziga kim suv tomizadi? Kim hassa ushlab, “Voy, otam”lab turadi? Hammangning yolingga termilib kozi ochiq ketadigan boldi-da otam bechora... - Sherqozi buni aniq tasavvur qildiyu gapiga ozi ham ishonib, birdan opkasi toldi, koziaridan tirqirab yosh keldi. Musoqulboyning ham iyaklari qaltirab qoldi.

- Ha, shurlik otam! Etmishga chiqqanda bu korgiliklar ham kutib turganmidi! – Sherqozi kafti bilan koziarini artdi. – Uka, bu gapni og'zingdan chiqara korma lekin. Zinhor bazinhor! Ayniqsa, boboyga.

endi Musoning koziari yoshlandi:

- Nima, doktorlar aniq kasalga chiqardimi?

Sherqozi chochib ketdi-da, yolg'onini andavalashga otdi:

- Hali aniq emasku-ya, lekin shu Xojam hech natijasini aytmaydi-da. Korsa, indamaydi. Ozim sorashim – noqulay.

- Sorash kerak-da, axir. Negativini korsatsin. Qanaqasiz, odam ham öz sog'ligiga shunchalik beparvo bo'ladimi?

- E-e, sen ham qiziq ekansan, - dedi Sherqozi. – Agar sil kasalsan, desa, odamlar men bilan bitta piyoladan choy ichmay qoyadi. Oshna-og'ayniga, toy-ma'rakaga aralasholmay qolaman...

- Nu i nu! – deya tutab ketdi Muso. – Toy-ma'raka emish! Gapni qarang! Bopti, soramang, odamlar sizni toydan kaltak bilan quvlab chiqaradi. Lekin gap bunday: hoziroq, yoq, bugun kechqurun men bilan jonaysiz! Moskvada sizni ozim tekshirtiraman. Sizni qishloq vrachlari emas, akademik... professorlar koradi.

- Qoy-e, ozim bir balo qilib tuzalib olarman, - deb qol siltadi. Sherqozi, “Ottizga chiqsa ham buning hovliqmaligi qolmabdi”, deya oylarkan. – Balki... hech gap yoqdir. Ozim vahima qilib yurgan bo'lmayin tag'in. Meni Moskvaga olib borsang-u, soppa-sog' chiqsam, sen akadim, prapesirlaring oldida qizarib... Lekin shu har zamonda “Oh-ho-o”, deb yotalib qoyaman-da.

Muso Moskva kasalxonalarining bu erdagidan ming karra afzal ekanini isbotlab, oyoq tirab turib oldi. Sherqozi konmadi, “Rozg'or, bola-chaqamni tashlab, Maskovda tentirashim etmay turuvdi”, dedi. “Ana shu qoloqligingiz bilan oz boshingizga etasiz!” deb xitob qildi Muso. Sherqozi gapni aylantirdi, chuvalatdi-chiyratdi, oxiri Muso akasining hech qanaqa kasal-pasal emasligiga qanday ishonganini bilmay qoldi. U boplab chuv tushganini sezib, jahli chiqa boshlagan edi, Sherqozi mavzuni mutlaqo boshqa tomonga – Musoning bolaligiga burib yuborib, kuldirdi: Muso tort yasharligida “Nazirani olaman”, degan emish. “Uni olib nima qilasan?” – deb Sherqozi sorasa, Muso oylab turib-turib: “Opaman”, - degan emish.

Muso boshini orqaga tashlab qahqah otgan paytda Sherqozi segingina uning oldiga pulni qoydi. Musoning qahqahasi og'zida, tizzalariga shapatilamoqchi bo'lgan qollari kotarilganicha qoldi:

- Iya, bu... qanday bo'ldi? – dedi on so'mliklardan ko'z uzmay.

- Ha endi, choy puli qilarsan, - dedi Sherqozi jilmayib.

Musoning yuziga mamnun bir tabassum yoyildi:

- Kechagidek tezlashib tursak bolar ekan-ku.

Chamasi biror soatlardan song Sherqozi osha chorpoyada yonboshlagancha, “Bizni tashlab qayga ketdi...” deb xirgoyi qilganicha xayol surib yotardi: “Hamma ishning chappa aylanib ketishiga sal qoldi-ya... Musoqulboy bu yil yoqlarmikan? Kitob yozish shuncha qiyin ishmi, a? Ha, odamlarning ichidagini bilish oson emas-da. Heh-he, “Tuyg'ularini oyoqosti qilishga haqqingiz yoq” emish. Ol-a! Ha, mana tuyg'ularini oyoqosti ham qilmadik, katta yo'l ham ochib berdik. Qani, bu kishining tuyg'uchalari necha kunga chidar ekan? Yigirmata terakni yiqitishni bir haftaga chozadi. Keyin og'ilni yiqitganda bir changib bersin, bir changib bersin! “Ota, bu...ni bir edim, ikkinchi emayman, oqishga boraman”, deb chopib keladi oldimga. Ishlarni sanab berganimda kozi chiqib ketdi-yu, yana bu kishi xotin

olarmishlar. Shu Sohibnazar akaning sakkizinchiga otgan qizchasi qog'irchoqdekkina bo'libdi-da. e, tavba, umr juda tez otadi-ya! Sohibnazar aka birinchi xotinini tug'masligi uchun qoyib yuborgani xuddi kecha edi. Mana, qizi boy etib qolibdi. Onasi juda pokiza ayol. Sultonboyni bir amallab oqishga joylashtirsak, ikki-uch yilni otkazib shu jamalaksochga bir og'iz solib koramiz-da".

- Karom, choy-poying bormi? ey, bu o'zbekning rozg'ori...

Shu payt Sherqozi sorining suzma osilgan ayrisiga qonib turgan kechagi olashaqshaqni korib qoldi.

Bungacha Sultondan hamma gapni oqizmay-tomizmay bilib olib, labini tishlab qolgan Karomat damlab, tindirib qoygan choyini kotarib chiqqanda Sherqozi olashaqshaq bilan qizg'in "suhbat" qurgan edi:

- Ha, choqi, choqi! Shu chakki xaltani sen uchun osdirib qoyibman. Qachon bu arzanda olashaqshag'imiz keladiyu teshib ketadi, deb kechadan beri yolingda ko'zim tort. e, bugun mashqing pastroq? Nega shaqillamaysan? Shaqilla, yana bir eshitaylik. Armoning qolmasin. Shaqilla-da-e...